



**INFORMATIKA DARSLARDA INNOVATSION METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

**Karimova Oygul Ro'ziyevna**

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi  
informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada informatika fani, uni o'qitishda samarali metodlardan foydalanish masalalari haqida fikr yuritilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы информатики и использования эффективных методов ее преподавания.*

**Abstract:** *This article discusses the use of effective methods in teaching computer science.*

**Kalit so'zlar:** *yangilik, innovatsiya, innovatsion faoliyat.*

**Key words:** *novelty, innovation, innovative activity.*

**Ключевые слова:** *инновация, новаторство, инновационная деятельность.*

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'z xususiyatiga ko'ra fanlararo xarakterga ega bo'lgan kompleksli ilmiy yo'nalish hisoblanib, boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun u fan-texnika va ta'lim tizimlarida integrativ funksiyani bajaruvchi fan sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yillaridan buyon mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'limda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammolariga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. *Innovatsion* - (ingliz.) - yangilikni kiritish (tarqatish) ma'nolarini anglatadi.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika innovatsiyachisi E. Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni ko'rsatgan.

- **"Yangilik"** - bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.
- **"Innovatsiya"** - bu ta'lim; ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

**Innovatsiya**-bu yangi texnologiyalarga, yangi ishlab chikarish omillariga tadbiiq etilgan yangi bilimlardan foydalanish(yoki ma'lum bilimlardan yangicha foydalanish) yo'li bilan yangi extiyojni qondirishga qaratilgan xarakat yoki bunday xarakat natijasi(yoki eski extiyojni ancha samarali qondirishning yangi yo'lini taklif etish)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Innovatsion faoliyatning subekti** - o'qituvchining shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda pedagog shaxsining ijtimoiy, madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

**Pedagogning innovatsion faoliyati** o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

**O'qitishdagi innovatsion texnologiyalar**-bu talabalarning *tizimli ijodiy fikrlashini* va ijodiy masalalarni yechishda *nostandart goya-fikrlar bildirish* qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan texnologiyalardir.

Innovatsion o'qitishning pirovard natijasi quyidagilardan iborat:

*o talabada boshqa ko'pchilik odamlar uchun ko'rinmaydigan narsaniko'rish qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish;*

*o talabaning ko'rganini, yangi narsa yaratish nuqtai nazaridan, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish. Bunda faqat yangilik emas, balki muammo yoki masalani samarali hal etish maqsadi qo'yiladi.*

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. THE ROLE OF EDUCATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT: A THEORETICAL PERSPECTIVE. Ilhan OZTURK. Journal of Rural Development and Administration, Volume XXXIII, No. 1, Winter 2001, pp. 39-47.

2. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.

3. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

4. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Gospodarka i Innovatsiya, 48, 715-720.

5. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

6. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innovatsiya, 46, 620-627.

7. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.

8. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.

9. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innovatsiya, 51, 191-195.

